




ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2023-YIL YANVAR-AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz


Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 41 357,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,6 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-avgust
mlrd so'm**



**Yanvar-avgust
FHI, % da**



Andijon sh.	5 770,5	103,3
Xonobod sh.	1 739,9	102,7
Oltinko'l	781,6	105,0
Andijon	739,0	108,8
Baliqchi	1091,4	103,4
Bo'ston	294,0	104,1
Buloqboshi	290,7	104,6
Jalaquduq	826,2	105,5
Izboskan	567,2	101,3
Ulug'nor	286,6	107,4
Qo'rg'ontepa	1409,5	101,2
Asaka	23 770,3	105,8
Marxamat	508,8	104,1
Shahrixon	1070,3	104,9
Paxtaobod	730,0	100,6
Xo'jaobod	1 482,0	101,8


mlrd so'm

FHI, % da


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 68 095,0 ming so'm, Xonobod shahrida 38 433,2 ming so'm, Xo'jaobod tumanida 12 572,0 ming so'm hamda Andijon shahrida 12 253,2 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar-avgust
ming so'm



Yanvar-avgust
o'sish sur'ati %da



Andijon sh.	12 253,2	101,1
Xonobod sh.	38 443,2	100,3
Oltinko'l	4 117,0	102,7
Andijon	2 627,0	106,4
Baliqchi	5 142,0	101,3
Bo'ston	3 842,0	102,1
Buloqboshi	1 931,6	102,6
Jalaquduq	4 215,1	103,5
Izboskan	2 256,6	99,3
Ulug'nor	4 538,2	105,4
Qo'rg'ontepa	6 210,3	99,4
Asaka	68 095,0	103,6
Marhamat	2 775,7	102,0
Shahrixon	3 357,8	102,5
Paxtaobod	3 557,2	98,3
Xo'jaobod	12 572,0	99,2

ming so'm

o'sish sur'ati. % da

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **40 458,4** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **97,8 %** ni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd so'm




2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (57,5 %), Andijon shahri (14,0 %), Xonobod shahri (4,2 %), Xo'jaobod (3,6 %) hamda Qo'rg'ontepa tumanlari (3,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Andijon (108,8 %), Ulug'nor (107,4 %) hamda Asaka tumanlarida (105,8 %) kuzatildi.

FHI, % da



Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **518,4** mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,3 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-avgust

2022-y. 135,4 mlrd soʻm

2023-y. 518,4 mlrd soʻm

FHI, % da

2021-y. 81,4%

2022-y. 128,0%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **40 458,4** mlrd soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,8 %** ini tashkil etdi.

Yanvar- avgust

2022-y. 29 707,1 mlrd soʻm

2023-y. 40 458,4 mlrd soʻm

FHI, % da

2022-y. 125,6 %

2023-y. 105,9 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Yengil avtomobillar		Yumshoq bug'doy va spelta uni		Aroq	
2023	116,5	2023	30,0	2023	0
2022	146	2022	95,9	2022	39,2
2021	55,1	2021	87,7	2021	81,3
Paxtadan yigirilgan ip		Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar		Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim	
2023	5 m	2023	199,1	2023	70,0
2022	56,5	2022	155,8	2022	7 m
2021	148,9	2021	83,4	2021	4,0
Neft		80% dan kam bo'lmagan etil spirti		Uzum vinosi	
2023	86,9	2023	92,6	2023	0
2022	111,3	2022	101,9	2022	42,4
2021	164,7	2021	89,1	2021	66,3
O'simlik yog'i (tozalanmagan)		Paxta chigiti		Paxta tolasi	
2023	0	2023	52,6	2023	100,1
2022	39,2	2022	34,1	2022	131,1
2021	162,2	2021	62,8	2021	54,0

2023- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 163,8 ming dona yengil avtomobil (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 16,5 % ga oshgan), 26,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (70,0 % kamaygan), 21,7 ming tonna paxtadan ip mahsulotlari (496,6 % ga oshgan).





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2022-yil yanvar- avgust	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan) - dona	163804,0	140565,0	23239,0
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	5 794,0	1 166,8	4 627,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	2 6368,4	88 038,6	-61670,2
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	239,5	120,3	119,2

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 65,6 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,0 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi – 10,4 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi – 10,7 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 3,9 % (2022- yilning yanvar–avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 87,7 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 70,2 % (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 68,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,3 % (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 2,6 %) va quyi texnologiyasi – 27,5 % (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 28,5 %)ni tashkil etdi.






Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati 39,3 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 48,0 % ni tashkil etgan.


2022- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati 46,9 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,2 % ni va o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,1 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 360,4 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,1 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1 622,9 mlrd so‘mni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,2 % ni tashkil etgan.

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,8 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 238,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,8 % ni tashkil etgan.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 1,1 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 413,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 104,5 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,5 %, fizik hajm indeksi 6 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 27 124,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,9 % ni fizik hajm indeksi esa 155,9 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 158,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 512,2 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 91,8 % ni tashkil etgan.


Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 147,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 340,8 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 64,0 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 116,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 271,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 87,0 % ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023- yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 283,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7% ini) tashkil etadi.


2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 150,0 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	646,1	541,9	-104,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6,7	0,4	-6,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 96,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi, +/-
Tabiiy suv: Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - ming so'm	43,2	71,2	28,0
Oqava-suvlarning shlami - ming so'm	12,8	12,1	-0,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 71,2 mlrd so'm yoki 64,7 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek oqava-suvlarning shlami bo'yicha xizmatlarda 12,1 mlrd so'm hajm bajarilgan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 29 198,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 70,6 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlari

Jami iste'mol mahsulotlaridagi ulushi, % da

2022- yil
yanvar-avgust



2023- yil
yanvar-avgust



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 17,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumani 78,3 %, Xo'jaobod tumanida 4,3 % hamda Andijon shahrida 2,6 % ga to'g'ri keladi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 22 875,0 mlrd so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 78,3 %, Xo'jaobod tumanida 1 250,4 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 4,3 %, shuningdek, Andijon shahrida 758,8 mlrd so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste'mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.

Hudud nomi	Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)
Andijon sh.	758,8	102,8
Xonobod sh.	284,2	103,7
Andijon	425,1	101,8
Asaka	22 875,0	105,4
Baliqchi	192,8	100,2
Buloqboshi	227,1	104,6
Bo'ston	129,8	101,1
Jalaquduq	403,4	100,3
Izboskan	314,8	96,1
Ulug'nor	136,3	104,8
Marhamat	211,6	100,7
Oltinko'l	570,8	145,2
Paxtaobod	413,5	80,9
Xo'jaobod	1250,4	102,9
Shahrixon	578,7	101,7
Qo'rg'ontepa	426,0	133,5

mlrd so'm

O'sish sur'ati % da


22 976,2 mlrd so'm

2022- yil yanvar-avgust

29 198,5 mlrd so'm

2023- yil yanvar-avgust

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi




2022- yil 157,1 %

2023- yil 106,4 %

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Andijon viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 8 746,2 ming so‘m bo‘lgani holda 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,2 % ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo‘yicha Asaka tumanida 65 530,2 ming so‘mga, Xo‘jaobod tumanida 10 607,3 ming so‘m, Xonobod shahrida 6 284,0 ming so‘mga, Oltinko‘l tumanida esa 3 006,4 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.



Andijon viloyati

6 948,3 ming so‘m

2022- yil yanvar-avgust

8 746,2 ming so‘m

2023- yil yanvar-avgust




2022-yil 153,8%

2023-yil 104,2%

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023- yilning yanvar-avgust oylarida jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 136,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shahrixon tumani (88,6 %), Andijon tumani (82,5 %), Baliqchi tumani (69,7 %), Jalaquduq tumani (62,1 %) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Xonobod shahri (33,6 %), Andijon shahri (27,0 %), Asaka tumani (1,7 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 845 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 5 510 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 458 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,5 %) Andijon shahriga, 593 tasi (10,8%) Andijon tumaniga, 494 tasi (9,0 %) Asaka tumaniga, 413 tasi (7,5%) Xo'jaobod tumaniga, 394 tasi (7,2 %) Shahrixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan

2022- yil

756 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2023- yil

616 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2022- yil

9 748 dona

2023- yil

5 469 dona